

## **DIE WICHTIGSTEN PRINZIPIEN DER ÜBERSETZUNG DER PHRASEOLOGISMEN IN DEN LITERARISCHEN WERKEN**

**Schuchratchon IMJAMINOVA**

Professor der Nationalen Universität Usbekistans  
Taschkent, Usbekistan

## **BADIIY ASARLARDA FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASINING ASOSIY PRINSIPLARI**

**Shuxratxon IMYAMINOVA**

O'zbekiston milliy universiteti professori, f.f.n.  
Toshkent, O'zbekiston

## **ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ**

**Шухратхон ИМЯМИНОВА**

Кандидат филологических наук, профессор  
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Ташкент, Узбекистан

## **BASIC PRINCIPLES OF PHRASEOLOGICAL UNITS TRANSLATION IN ARTISTIC TEXTS**

**Shukhratkxon IMYAMINOVA**

Candidate of Philological Sciences, Professor  
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan [rumrreich@mail.ru](mailto:rumrreich@mail.ru)

UDC (УО'К, УДК): 811.112.2: 81.255.4

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Imyaminova Sh. Badiiy asarlarda frazeologizmlar tarjimasining asosiy prinsiplari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 4 (51). — B. 92-98.

<https://doi.org/10.36078/1692685565>

**Received:** June 11, 2023

**Accepted:** August 17, 2023

**Published:** August 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

**Abstract.** Dieser Artikel widmet sich der Erforschung der Übersetzungsprinzipien von Phraseologismen aus dem Deutschen ins Usbekische in den literarischen Werken. Bei der Analyse der Kriterien für die Übersetzung von Phraseologismen aus dem Deutschen ins Usbekische wurde vergleichende Methode angewendet. In den literarischen Werken, nämlich Märchen, wurden bei direkter Übersetzung solchen Fällen begegnet wie vollständige bzw. teilweise Übereinstimmung und das Fehlen der Übereinstimmungen der Phraseologismen. Bei der vergleichenden Untersuchung dieser Probleme wurden solche Fälle wie Nichtübereinstimmung bei der Übersetzung häufiger getroffen und dieser Prozess konnte dem Übersetzer viele Schwierigkeiten bereiten, weil Übersetzung der Phraseologismen aus dem Deutschen ins Usbekische ein komplexer Prozess ist. Die Neuheit dieser Arbeit ist die wissenschaftliche Forschung der Autorin an das Thema der Übersetzung von Phraseologismen aus dem Deutschen ins Usbekische in den literarischen Werken. Die Autorin bestrebt sich danach die Übersetzungskriterien durch eine vergleichende Analyse verschiedener Theorien und Konzepte zu entwickeln. Obwohl dieser Artikel keine vollständige Lösung für das Problem der Übersetzung von Phraseologismen anbietet, kann er eine wichtige Lösung für die weitere Forschung auf demselben



Open Access

Gebiet sein.

**Schlüsselwörter:** Übersetzung; Phraseologismen; deutsche Sprache; usbekische Sprache; literarischer Text.

**Аннотация.** Ушбу мақола бадий асарларда фразеологизмларнинг немис тилидан ўзбек тилига таржима қилиш принципларини тадқиқ қилишга бағишланади. Фразеологизмларни немис тилидан ўзбек тилига таржима қилиш мезонларини таҳлил қилишда қиёсий чоғиштирма метод қўлланилди. Ушбу усулдан фойдаланган ҳолда бадий асарларда эртак жанрига оид матнларда фразеологизмларнинг бевосита таржимада тўла мос келиш, қисман мос келиш ва умуман мос келмаслик ҳолатлари аниқланди. Бу ҳолатлардан умуман мос келмаслик ҳолатлари таржимада кўпроқ учраши ва бу жараён таржимонга қийинчиликлар туғдириши ва унинг учун таржимондан катта маҳорат талаб қилиниши, чунки фразеологизмлар таржимаси мураккаб жараён бўлганлиги учун ҳам бу муаммоларни қиёсий тадқиқ қилиш зарурати пайдо бўлди. Ушбу ишнинг янгилиги муаллифнинг фразеологизмларни немис тилидан ўзбек тилига таржима қилиш масаласига илмий ёндашуви, турли назария ва концепцияларни қиёсий таҳлил қилиш орқали таржима мезонларини ишлаб чиқишга бўлган интилишидир. Ушбу мақола фразеологизмлар таржимаси муаммосига тўлиқ ечим бермасда бундан кейинги шу соҳа бўйича олиб бориладиган кейинги тадқиқотлар учун муҳим ечим бўлиши мумкин.

**Kalit so'zlar:** tarjima; frazeologik birlik; nemis tili; o'zbek tili; badiiy matn.

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию принципов перевода фразеологизмов с немецкого на узбекский язык в художественном тексте. При анализе критериев перевода фразеологизмов с немецкого на узбекский язык был использован метод сравнительного изучения. При прямом переводе в художественных произведениях, относящихся к жанру сказок, были обнаружены случаи как полного и частичного совпадения, так и фразеологизмы, не имеющие соответствующих эквивалентов. Из этого возникла необходимость в сравнительном изучении этих проблем, даже потому, что случаи общей несовместимости фразеологизмов чаще встречаются при переводе и этот процесс вызывает трудности у переводчиков. Перевод фразеологизмов — сложный процесс, который требует большого мастерства от переводчиков. Новизна данной работы заключается в стремлении автора разработать критерии перевода посредством сравнительного анализа различных теорий и концепций. Несмотря на то, что эта статья не дает полного решения проблемы перевода фразеологизмов, она может оказать важное содействие для дальнейших исследований в этой области.

**Ключевые слова:** перевод; фразеологизм; немецкий язык; узбекский язык; художественный текст.

**Abstract.** The article is devoted to studying the principles of translating phraseological units from German into Uzbek in a literary text. When analyzing the criteria for translating phraseological units from German into Uzbek, the method of comparative study was used. In the direct translation of works related to the genre of fairy tales, both completely coinciding and partially coinciding and having no equivalents of phraseological units were found. Consequently, there is a need for a comparative

study of these problems due to the general incompatibility of phraseological units that causes particular difficulties for translators. Translating phraseological units is a complex process that requires great skill from translators. The novelty of this work lies in the author's desire to develop translation criteria through a comparative analysis of various theories and concepts. Even though this article does not provide a complete solution to the problem of translating phraseological units, it can provide important assistance for further research.

**Keywords:** translation; phraseological unit; German; Uzbek language; artistic text.

Tarjima jarayoni inson yaratilibdiki hamisha muhim hisoblangan. Agar shaxmat aql gimnastikasi bo'lsa, tarjima so'z gimnastikasi deyish mumkin. Shuning uchun ham tarjima so'z san'ati, tarjimon esa ijodkordir. Tarjimaning asosiy muammosi o'zga tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratish va unga o'zgacha jilo berish, ammo asl nusxani ma'no-mohiyatini to'laqonligicha saqlab qolishdan iboratdir.

Tarjimada, albatta, tildagi barcha til birliklari ishtirok etadi va tarjimoni ma'noli bo'lishida asosiy rolni o'ynaydi. Shunday til birliklaridan biri frazeologizmlardir.

Frazeologiya sohasi har bir tilda eng navqiron, ammo shu bilan birga tilga o'zgacha ma'no kasb etadi. Frazeologizmlar har bir tilda mavjud bo'lib, bu jarayon tillarda so'z boyligini ortishiga asosiy zaminlardan biridir. Frazeologizm — so'zlar ma'nosining o'zgarmasligi va so'zma-so'z tarjima qilinmaydigan, o'z ma'nosiga ega bo'lgan birikmalar. Bundan tashqari, frazeologizm — o'zgarmaydigan gaplar, mustaqil bir fikrni bildiradigan, idiomatikaga yaqin bo'lgan ko'chma ma'noga ega bo'lgan so'zlar birikmasidir, shuning uchun ham frazeologizmlar tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar deb ataladi.

Ushbu maqolada biz badiiy asarlardan ertak janriga xos asarlarda frazeologizmlar tarjimasini to'g'risida so'z yuritamiz. Ma'lumki, badiiy tarjima — badiiy ijod sohasidir. Chunki tarjimaning boshqa sohalarga oid matn tarjimalaridan farqli o'laroq, badiiy tarjimaning o'z xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar badiiy adabiyotning turidan va tabiatidan kelib chiqadi. Chunonchi, agar aniq fanlarda asosiy manbalar, tahlil, jadval bo'lsa, badiiy asarlarda esa obraz, tasvir va hikoya qilinayotgan voqeaning ta'sirchanligi muhim rol o'ynaydi. Xuddi shu omillar badiiy tarjima uchun ham muhimdir.

Tarjima san'ati ma'lum asarni boshqa tilda yaratish san'atidir. "Tarjimaning imkoniyatlari chegaralangan, ammo tarjimonning imkoniyatlari chagaralanmagan. Tarjima bo'ladigan hamma narsani bera bilish tarjimonning sharafli burchi. Qayta yaratishdagi muvaffaqiyat uning iste'dodi va badiiy idrokiga bog'liq. Tarjimadagi ijod, aslini olganda, originalning mazmuni, yozuvchi hissiyotidan kelib chiqqan holda ana shu "tarjima bo'ladigan" va "tarjima bo'lmaydigan" unsurlarni bir badiiy yaxlitlikka birlashtirish mahoratidan iborat" (5, 38).

Badiiy tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash bilan birga ayni paytda, har bir millatning madaniyati va adabiyotini boyitishga xizmat qiladi. Demak, badiiy tarjima xalqning madaniy va estetik saviyasini o'stiribgina qolmay, balki dunyoqarashning shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega. Kitobxon tarjima orqali o'zga xalqlarning urf-odati, madaniyati, turmush sharoiti, uning yozma va og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishadi. Ayniqsa, frazeologizmlarni tarjima qilishda har qanday holda ham milliy muqobil bilan almashtirish va ayni shu matnga mahalliy va milliy bo'yoq berishga sabab bo'ladi.

Tarjimon matni tarjima qilish jarayonida milliy, o'zbek xalqi uchun tushunarli bo'lgan, kundalik so'zlashuv nutqimizda ko'p ishlatiladigan frazeologik birikmani qo'llaydi.

Har qanday tarjimon muallif uslubini aks ettirar ekan, bunda albatta uning individual uslubini o'rni ham mavjud. Tarjimon asardagi frazeologizmlarni tarjima qilar ekan, tarjimada milliylikni saqlashga va, eng avvalo, shaklan va mazmunan to'g'ri keladigan va o'sha ma'noni to'liq aks ettiradigan ekvivalent topa olish juda muhimdir. Asarda tasvirlangan voqealar jarayoni obrazining xususiyati va boshqa hollarga qarab qanday muqobil ibora tanlashni tarjimonning yolg'iz o'zi hal qiladi. Birikmalarning muqobillari va muqobil variantlari faqat konteks ichidagina bir-birini almashtira olar ekan, bunda ularning ma'nosi to'g'ri kelsa ham ko'pincha formalar va, ayniqsa, obyektlar mos kelmasligi mumkin.

Tarjimada asosan bir xalq emas, balki o'nlab, yuzlab millat va elatlarning tajribalari, turmush tarzlari, ilm-fan yutuqlari bilan o'rtoqlashiladi. Bunda asosan ko'prik bo'lib ularning tillari xizmat qilsa, tilshunoslikning muhim sohasi sifatida e'tirof etilayotgan frazeologizmlar ham bundan mustasno emas. Chunki frazeologik birliklar, birikmalarda milliy kolorit ko'proq saqlanadi, ya'ni xalqning urf-odat, an'ana, iqtisodiyot, siyosat, din, xullas, barcha qirralarini frazeologizmlar o'zida mujassamlashtiradi.

Masalan: *j-m einen Korb geben (von Heiratsantrag ablehnen)*. Agar bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak "*kingadir savat bermoq*" deb tarjima qilish mumkin, frazeologik ma'nosini esa "*sovchilarga rad javobini bermoq*" deb o'zbek tiliga o'girish maqsadga muvofiq. Bu holatda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu iborani qanday tarjima qilish albatta kontekstga bog'liqdir.

Ta'kidlash lozimki, badiiy matnlarda aslida frazeologizmlar ko'proq qo'llaniladi. Ma'lumki, frazeologizmlarni nemis tilidan o'zbek tiliga yoki aksincha tarjima qilishda, albatta, o'zbek tiliga mos keladigan muqobil variantini topish zarur. Asosan, frazeologizmlarning ma'nolari matn ichida ochiladi. Ammo frazeologizmlarni so'zma-so'z tarjima qilish imkoniyati ham mavjud. So'zma-so'z tarjima, agarda matnda uchragan frazeologizmlarni tarjima qilganda matn mazmuniga zarar yetkazmasa, frazeologizmlarni boshqa obrazlar bilan almashtirib tarjima qilish yetarli foyda berishi mumkin.

Frazeologizmlarni turli tillardagi ekvivalent hamda muqobil variantlari va ularni tarjima qilishning ayrim masalalarini

o'rganishda ba'zi xulosalarga kelish mumkin. Dunyoda turli millat va elatlar mavjud ekan, turli xalqlarda tafakkur bir xil emasligi va turli e'tiqod, tasavvurlar mavjudligi natijasida tarjima matnini tushunish jihatidan ham bir-biridan farq qiladigan tillarda ma'nosi bir xil yoki bir-biriga yaqin frazeologizmlar bo'lgan. Frazeologizmlarni bir tildan boshqa tilga deyarli so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmashligini nazarda tutib, tarjima jarayonida u yoki bu xalq tilida o'sha ma'noda qo'llaniladigan va shu tilda mavjud bo'lgan frazeologizmlarni tanlashga harakat qilish lozim. Bu esa tarjimondan tarjimaga ijodiy yondoshish va to'g'ri tushunish, to'g'ri idrok qilishni talab qiladi.

Frazeologizmlar tarjimasida ular bir tildan boshqa tilga berilganda uch xil holatda uchratish mumkin.

- *To'la mos kelish holatlari;*
- *qisman mos kelish holatlari;*
- *umuman mos kelmaslik holatlari.*

Birinchisi, bu nemis tilidagi frazeologizmni o'zbek tiliga ham frazeologizm bilan berilishi va ularning ma'no va grammatik strukturasi bir-biriga to'la mos kelishidir.

Nemis tilida to'la frazeologik birlik deb, o'zbek tiliga tarjimasida tayyor muqobil ekvivalentga ega bo'lgan mazmun jihatdan leksik tarkibi, obrazlilik va stilistik bo'yoqdorligi va grammatik strukturasi nuqtayi nazaridan bir-biriga mos keladigan frazeologik birikmalar tushuniladi.

Masalan, „*nach j-s Pfeife tanzen*” (8, 40) frazeologik birikmaning boshqa sinonimlari ham mavjud bo'lib, muallif aynan shu birikmadan foydalangan. *Sich nach j-m richten, j-m gehorchen: nach j-s Pfeife tanzen — nach j-s Geige tanzen.* Tarjimada esa tarjimon bir qator sinonimlari mavjud bo'lgan “nog'orasiga o'ynamoq” (1, 133) variantini tanlaydi. Bu esa matn mazmundorligini oshirish barobarida o'quvchiga matnning tushunarli bo'lishiga yordam beradi.

Masalan, „*stumm wie ein Fisch bleiben*” (8, 27) frazeologizmi nemis tilida „*schweigen*” ma'nosini beradi, ammo *den Mund halten — die Klappe halten — die Fresse halten — die Schnause halten — den chnabel halten — den Rand halten* nemis tilida bu frazeologizmni bir necha variantlari va sinonimlari mavjud.

O'zbek tiliga esa bu frazeologizmni asl matnga moslamadan so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, ammo tarjimonning mahorati shundan iboratki, tarjimada til xususiyatini ham, milliy kaloritni ham hisobga olgan holda o'zbek tiliga “*og'ziga talqon solmoq*” deb tarjima qilgan.

Yoki „*zu Tode ersrecken*” (8, 154). Ushbu frazeologizmning bir qator sinonimlari mavjud, ya'ni *Angst bekommen: kalte FüÙe bekommen- das Herz ist j-m in die Hosen gefallen.*

Bu frazeologizmini o'zbek tiliga asar qahramonining holatidan kelib chiqib “*o'lguday qo'rqmoq*” deb tarjima qilingan va bu frazeologik birikmalar o'ziga xos ma'no hamda grammatik strukturasi jihatidan ham bir-biriga mos tushgan.

Yana shu ertakda qo'llanilgan „*in Wut geraten*” (8, 698) frazeologik birlikning bir qator sinonimlari mavjud bo'lib,

Wütend sein: *j-m kocht das Blut in den Adern — sich grün und blau — j-m platzt der Kragen — eine Wut im Bauch haben — einen Bauch voll Torn haben — Gift und Galle speiern — da geht einem das Messer in der Tasche auf* “ko‘zlari qonga to‘lmoq” (1, 174) deb tarjima qilingan.

Ushbu frazeologizmlarni o‘zbek tiliga tarjimasida to‘la mos keladigan frazeologizm bilan tarjimon tomonidan to‘g‘ri qo‘llangan. Ikki tildagi mavjud frazeologik birliklar bir-biriga ham semantik, ham grammatik qurilishi jihatdan to‘la mos keladi.

Badiiy tarjimada asosiy gap alohida olingan biror so‘z yoki jumlani tarjimon qanday o‘g‘irganligi bilan baholanmaydi, chunki har bir tarjimaning mazmun va mohiyatini baholash mezoni mavjud. Uni qayta yaratish jarayoni esa uch bosqichda amalga oshiriladi.

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).
2. Asarning g‘oyasi, muallifning maqsad-muddaosi va uning o‘ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.
3. Tarjimada muqobil variant topa olish.

Badiiy asarni o‘g‘irishda asosiy omil tarjimada ayrim olingan har bir holatga qanday so‘z yoki jumla to‘g‘ri kelishi yoki mosligini hisobga olish emas, balki badiiy tarjimaning ilmiy tavsiflash eng qiyin bo‘lgan xossasi shundaki, bunda so‘zni so‘z bilan emas, balki ma‘noni ma‘no, ohangni ohang, obrazni obraz, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir.

Ikkinchisi esa bir-biriga qisman mos keladi. Ko‘pincha frazeologizmlar tarjimasida mazmun ham, obrazlilik ham to‘la berilmaydi. Bunday holda asl nusxadagi frazeologizm bilan tarjimadagi frazeologizmning bir-biriga aynan emas, balki qisman to‘g‘ri kelishidir. Frazeologizmlar tarjimasining katta qismini tarjimada qisman mos keladigan birikmalar tashkil etadi. Tarjimon tarjima qilish jarayonida, albatta, matndan kelib chiqib o‘zbek tiliga o‘g‘irishga harakat qiladi.

Keyingi holat esa bu umuman mos kelmaslik hollaridir. Bunda asl matnda berilgan frazeologik birikma o‘zbek tiliga tarjima qilinganda berilmay qolib ketgan. Bunday holat juda kam uchraydi. Shuning uchun tarjimon bunday holatlarda tarjimada kontekstdan kelib chiqib asliyatlardagi frazeologizmi boshqa til birliklari bilan o‘g‘irsa ham maqsadga muvofiqdir.

Tarjimada shunday hollar ham uchraydiki, mutarjim so‘zlarni tushirib qoldiradi. Masalan: „*sich den Kopf zerbrechen*” (8, 76). Ushbu frazeologik birikmaning boshqa sinonimlari ham mavjud. *Sich den Kopf zerbrechen — sich das Hirn zermartern*. Ammo o‘zbek tilida bu frazeologik birikma tarjimada tushirib qoldirilgan. Bu ajoyib birikma o‘zbek tilida “*boshini qotirmoq, qattiq o‘ylanmoq*” deb berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tarjima qilinayotgan asarning janr xususiyatlarini hisobga olish, tarixiylik, milliylik, badiiylik, uslub qiyinchiliklarini ham buning ustiga jamlansa, o‘shandagina so‘z san‘atining bu turi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Tarjimada ikki xalq va ikki til, ikki did va ikki moddiy-ma‘naviy hayot, ikki milliy san‘at va adabiyot, ikki davr va ikki adib o‘rtasidagi o‘ziga xos ko‘rinishini

ham hisobga olinsa, ana o'shandagina to'laqonli tarjimaga erishish mumkin deb o'ylaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ака-ука Гримм эртаклари. Етти оққуш. Немис тилидан Раҳимов Х. ва Салимова Ш. таржимаси. — Т., Чўлпон, 1991.
2. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немецко - русский фразеологический словарь. — М., 1975, 656 с.
3. Касландзия В.А. Синонимия в немецкой фразеологии. — Москва, 1990. — 187 с.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Тошкент, 1978. — 406 б.
5. Саломов. Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. — Т., 1979. — 222 б.
6. Умарходжаев М., Назаров Қ. Немисча – русча – ўзбекча фразеологик луғат. — Т.: Ўқитувчи, 1994. — 160 б.
7. Шкляр В.Т., Эккерт Р., Энгельке Х. Краткий русско - немецкий фразеологический словарь. — М., 1977. — 253 с.
8. Brüder Grimm. Kinder und Hausmärchen. Der arme Junge im Grab. — Berlin, Neues Leben, 1984. — 263 s.
9. Duden, Bd. 11 (1992): Redewendungen und sprichwortliche Redensarten. — Mannheim, etc. — 864 s.
10. Friedrich W. Moderne Deutsche Idiomatik. — Max Hüber Verlag. München, 1966. — 824 s.

#### References

1. *Aka-uka Grimm ertaklari. Etti oqqush. Nemis tilidan Raḥimov Kh. va Salimova Sh. tarzhimasi* (Fairy tales of the Brothers Grimm. Seven swans. From German Rahimov Kh. and Salimova Sh. translation), Tashkent, Chylpon, 1991. (in Uzbek)
2. Binovich L.E., Grishin N.N. *Nemetsko - russkii frazeologicheskii slovar'* (German - Russian Phraseological Dictionary), Moscow, 1975, 656 p. (in Russian)
3. Kaslandziya V.A. *Sinonimiya v nemetskoii frazeologii* (Synonymy in German phraseology), Moscow, 1990, 187 p. (in Russian)
4. Raḥmatullaev Sh. *Uzbek tilining izoqli frazeologik luḡati* (An explanatory phraseological dictionary of the Uzbek language), Tashkent, 1978, 406 p. (in Uzbek)
5. Salomov. F., Komilov N. *Dustlik kupriklari* (Friendship cups), Tashkent, 1979, 222 p. (in Uzbek)
6. Umarchodzaev M., Nazarov Q. *Nemischa – ruscha – uzbekcha frazeologik luḡat* (German - Russian - Uzbek phraseological dictionary), Tashkent: Ukituvchi, 1994, 160 p. (in Uzbek)
7. Shklyarov V.T., Ekkert R., Engel'ke Kh. *Kratkii russko - nemetskii frazeologicheskii slovar'* (Brief Russian - German phraseological dictionary), Moscow, 1977, 253 p. (in Russian)
8. Brüder Grimm. *Kinder und Hausmärchen. Der arme Junge im Grab* (Children's and Household Tales. The poor boy in the grave), Berlin, Neues Leben, 1984, 263 p. (in German)
9. Duden, Bd. 11, *Redewendungen und sprichwortliche Redensarten* (Idioms and proverbial sayings), Munich, 1992, 864 p. (in German)
10. Friedrich W. *Moderne Deutsche Idiomatik* (Modern German idiomatics), Max Hueber Verlag. Munich, 1966, 824 p. (in German)